

ADOLATNING HIMOIYACHILARI: ADVOKATURA INSTITUTINING HUQUQIY VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Choriyev Jaxongir Oltin o'g'li

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Choriyevjahongir23@gmail.com

Telefon: 955289665

ANNOTATSIYA: *Advokatura – har qanday huquqiy davlatning asosiy institutlaridan biri bo'lib, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonuniylik tamoyillarini amalga oshirishda advokatlarning faoliyati ajralmasdir. Ushbu maqola advokatura tushunchasi, uning tarixi, huquqiy asoslari hamda jamiyatdagi roli haqida ilmiy yondashuv bilan tahlil qiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – advokatura institutining huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini yoritish hamda uning rivojlanish istiqbollari aniqlashdir. Prezidentimizning va hukumatning bu sohada olib borayotgan islohotlari haqida batafsil tanishib chiqishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *advokatura, siyosiy institut, huquq, qonuniylik, ijtimoiy hayot, demokratiya, yuridik xizmat, huquqiy himoya, adolat va qonun.*

АННОТАЦИЯ: *Адвокатура является одним из основных институтов любого правового государства, играя важную роль в обеспечении правосудия и верховенства права. Деятельность адвокатов незаменима в защите прав и свобод человека и гражданина и реализации принципов законности. В данной статье с научной точки зрения анализируется понятие адвокатуры, ее история, правовые основы и роль в обществе. Основная цель статьи — подчеркнуть правовое и социальное значение адвокатуры и определить перспективы ее развития. В статье вы найдете более подробную информацию о реформах, проводимых Президентом и правительством в этой сфере.*

Ключевые слова: *адвокатура, политический институт, право, законность, общественная жизнь, демократия, юридическая служба, правовая защита, правосудие и право.*

ANNOTATION. *The legal profession is one of the main institutions of any legal state, playing an important role in ensuring justice and the rule of law. The activities of lawyers are indispensable in protecting the rights and freedoms of people in society and implementing the principles of legality. This article analyzes the concept of the legal profession, its history,*

legal foundations and role in society from a scientific approach. The main purpose of the article is to highlight the legal and social significance of the legal profession and determine the prospects for its development. You can learn more about the reforms carried out by the President and the government in this area.

Keywords: legal profession, political institution, law, legality, social life, democracy, legal service, legal protection, justice and law.

KIRISH. Barchamizga ayon bo'ldiki, hozirga kelib dunyo mamlakatlari rivojlanish jarayonlarida ko'plab tajribalarni boshidan o'tkazdi va yakunda barcha uchun birdek xulosa sifatida, davlat har tomonlama rivojlanishi uchun eng asosiy vazifa sifatida undagi fuqarolik jamiyati institutlarini qurish va ularni yuksaltirish ekanligi ma'lum bo'ldi. Fuqarolik jamiyati bir vaqtning o'zida muayyan g'oya va mafkura, aniq asosga ega bo'lgan voqelikni qamrab olmasada uning amaliy xarakteri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. AQSH tashkil topganidan so'ng u va g'arbiy Yevropa mamlakatlari demokratik prinsiplarni o'z ijtimoiy-siyosiy hayotiga tatbiq etib jadal rivojlanishda davom etdi, Rossiya tazyiqi ostida Sharq, Osiyo mamlakatlari va Rus davlatining o'zi ham kommunistik, sotsialistik

g'oyalar ta'sirida o'z qobig'iga o'ralib qoldi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda AQSH va G'arbiy Yevropaning ko'plab mamlakatlaridan ortda qoldi. Demokratiyaning yoki fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bu – advokatura hisoblanadi.

Advokat atamasi lotincha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, “advocatus”, “advocare” yordamga chaqirish degan ma'noni anglatib, yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxsdir. Advokatura kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlabki advokat alternativasiidagi kasb Qadimgi Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan. Qadimgi Afinada dastlab har bir inson o'zi uchun, o'z huquqlari uchun shaxsan o'zi kurashishi, o'zi talab qilishi zarur edi, hech bir shaxs boshqa shaxs manfaatini ko'zlab biror ish qilishi mumkin emas edi, lekin vaqtlar o'tib qonunlar o'zgarishi natijasida, mashhur notiqalar himoyachi sifatida chiqib, kimningdir ishini da'vo qilish uchun omma oldida nutq so'zlaganlar, aynan shu hozirgi advokat kasbining ilk ko'rinishi hisoblanadi. Shuningdek Qadimgi Rimda Yuliy

Sezar, Mark Tulliy Sitseronlarning kuchli Rim huquqshunos va advokatlari bo'lganliklari tarixdan ma'lum. Advokatura fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda davlatchiligimizning uch ming yildan ortiq tarixi bo'lsa-da, advokatlik instituti ancha keyin paydo bo'lgan. O'zbekiston hududida o'zini –o'zi boshqarish tuzilmasi sifatida “Himoyachilar bo'limi” deb nomlangan birinchi professional advokatura 1879-yilda Qo'qon shahrida tashkil etilgan bo'lib, o'ndan ortiq advokatlarni o'zida birlashtirgan.[1] Filial Sankt-Peterburgda huquqshunoslik diplomini olgan Abdunabi Qurolbay tashabbusi bilan tashkil

etilgan. U birinchi o‘zbek advokati hisoblanadi. Buxoroda 1915-yildan boshlab Rossiya va Turkiyada advokatlik amaliyotini o‘rgangan Valixon Xo‘ja tomonidan tashkil etilgan Ko‘ngilli yuristlar bo‘limi faoliyat yuritgan.[2] XX asrdan boshlab O‘zbekistonning ayrim hududlarida xususan Samarqand viloyat advokatlar kollegiyasida 43 nafar advokatdan 11 nafari o‘zbekistonlik, 3 nafari ayollar. Farg‘ona viloyatida 26 advokatdan 11 nafari mahalliy millat vakillari edi. Qashqadaryo va Xorazmda bor yog‘i 9 nafar advokat ishlagan.[3]

Asosiy qism: Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng qisqa vaqt ichida asrga tatigulik ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik sharofati bir qator sohaga oid normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan “Advokatura to‘g‘risida” gi qonunning kuchga kirishi bilan advokatlar soni sezilarli darajada ko‘paydi. 1997-yil 1-iyulda advokatlar hay‘atlari soni 20 taga ko‘paydi, 42 advokatlik firmalari, 80 ta advokatlik byurolari tashkil etilib, advokatlarning umumiy soni 2701 tani tashkil etadi. Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirish, fuqarolarning tergov va sud jarayonlarining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy normani hayotga tatbiq etish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta‘minlash, uni yuqori malakali kadrlar bilan ta‘minlash, advokatlar mustaqilligining kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro‘si va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, mazkur institutdagi muhim o‘zgarishlar advokaturaga oid asosiy normalarni belgilab beruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi bilan bevosita bog‘liq. Bugungi kunda mamlakatimizda advokatura institutiga oid quyidagi qonunlar mavjud. Bular 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va 1998-yil 25- dekabrda qabul qilingan “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.[4]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlar mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.[5] Xususan: advokatlarga nizolarni sudgacha hal etish, taraflarni yarashtirish choralari ko‘rish, shuningdek, hakam sifatida faoliyat yuritish huquqi berildi; advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun advokatlik tuzilmasida majburiy stajirovkadan o‘tish muddati olti oydan uch oygacha qisqartirildi, bunda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimlari, shuningdek, sudya, tergovchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil ishlagan shaxslar majburiy stajirovkadan ozod etilishi belgilandi; advokatning uzrli sabablarsiz o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarmasligi muddati uch oydan olti oygacha uzaytirildi; advokatlik litsenziyasining amal qilishini to‘xtatish faqat Adliya vazirligi murojaatiga ko‘ra, Oliy malaka komissiyasining xulosasi asosida sud tomonidan amalga

oshirilishi belgilandi; advokat maqomini olish uchun malaka imtihonini qayta topshirish muddati bir yildan olti oygacha qisqartirildi.

Milliy advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga kiritilgan ushbu o‘zgartish va qo‘shimchalar xalqning advokatura institutiga bo‘lgan ishonchini oshirish, advokat maqomini yanada mustahkamlash, advokatlarning kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun asos yaratdi. Ijobiy jihatlardan biri shundaki, mamlakatimizda advokatlar ishtirokidagi sud jarayonlarida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan odil sudlovni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida “Advokatura - odil sudlovning ajralmas qismi, adolatni qaror toptirishda ushbu institutning o‘rni beqiyos” ekanligi ta‘kidlandi. Advokatura to‘g‘risidagi qonunchilikka kiritilgan advokatlik tuzilmasi bo‘lgan advokatlik byurosi bilan bog‘liq muhim o‘zgarishni alohida ta‘kidlash lozim. 2018- yil 11-oktabrda qabul qilingan qonunga muvofiq advokatlik byurolarini ta‘sis etgan advokatlar o‘z faoliyatini mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda o‘ziga tegishli bo‘lgan turar joylarda amalga oshirishi mumkin, bunda advokatga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan turar joylarni advokatlik byurosi faoliyatida foydalanish uchun noturar joy toifasiga o‘tkazish talab etilmaydi. Bu esa advokatura institutiga kirayotgan yangi advokatlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Advokatura faoliyatidagi ortiqcha sansalorlik, byurokratiya va qog‘ozbozlikni bartaraf etish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjat almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2022-yil 30-mayda O‘zbekiston Prezidentining “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.[6] Ushbu qarorga ko‘ra muhim o‘zgarishlar sifatida quyidagilarni ta‘kidlash lozim: advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya berish jarayoni talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirishning amaldagi tartibini saqlab qolgan holda “Litsenziya” axborot tizimi orqali amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi; advokatlik tuzilmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va tugatish faqat “yagona darcha” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron shaklda amalga oshiriladi; advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish, advokatlik faoliyatiga litsenziya olish va advokatlik byurosini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish belgilandi.

Bundan tashqari, fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni nazarda tutuvchi “Yuridik yordam”

axborot tizimining ishga tushirilishi advokatlar uchun qator imkoniyatlar yaratdi. Xususan, advokatlarning elektron reestri va advokatlarning shaxsiy elektron kabinetini shakllantirish, advokat maqomini o‘z arizasiga ko‘ra to‘xtatib turish elektron xabarnoma shaklida amalga oshirilishi belgilandi, advokatlik tuzilmalari tomonidan muayyan ishni yuritish uchun advokatlarga beriladigan an‘anaviy shakldagi order maqomiga teng bo‘lgan maxsus QR-kodga ega “Elektron advokatlik orderi”ni berish amaliyoti joriy etilmoqda. “Yuridik yordam” axborot tizimi joriy etilishi munosabati bilan asosiy o‘zgarishlardan biri advokatlarni inson omilisiz elektron tarzda tasodifiy tanlash orqali davlat hisobidan ishga jalb etish tartibi belgilanganligidir.

Xulosa va takliflar. Ilk taraqqiyot sivilizatsiyamizdan hozirgi kunga qadar ko‘plab institutlarni shakllantirdik, rivojlantirdik. Mustaqilligimizning ilk kunlarida ham bu tizimga beparvo qaralmadi. Ammo, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda kashfiyotlar va turli xil o‘zgarishlar amalga oshirilib borilmoqda. Bunday ijobiy o‘zgarishlar, albatta, butun jamiyat uchun foydali lekin bunday jamiyatda hali ham qonun ustuvorligiga ishonchsizlik ham yo‘q emas, afsuski. Bunday holatlar barcha rivojlanib borayotgan mamlakat hamda jamiyatga katta zarar yetkazadi. Shu muammolar yil sayin rivojlanganligi sari, advokatura instituti ham, uning mavqeyi, vazifalari ham o‘zgarib bormoqda. Chunki biz advokatura institutiga shunchaki tashkiliy birlik sifatida emas, balki ijtimoiy harakatdagi doimiy rivojlanadigan hamda shaxslar, fuqarolar murojaatlariga tez va to‘liq amaliy yordam bera oladigan, xalqni dardiga yuridik yordam bera oladigan, hamda xalq bilan davlat va davlat organlari o‘rtasidagi ko‘priksizlik sifatida qarashimiz kerak. 2023-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonuni O‘RQ-848 qabul qilindi.[7] Ushbu qonunga ko‘ra, Adliya vazirligi davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi sifatida belgilandi. Shuningdek, qonunda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishning asosiy tamoyillari, bunday yordam ko‘rsatuvchi shaxslar, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatiladigan ishlar toifalari, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni rad etish va to‘xtatish asoslari hamda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni moliyalashtirish asoslari va manbalari belgilab berildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ushbu soha uchun quyidagilarni taklif etmoqchiman.

1. Advokatura va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmini yaratish
2. Nodavlat notijorat tashkilotlari, Ombudsman instituti va advokatura o‘rtasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi advokaturaning ijtimoiy ta’sir doirasini kengaytiradi va inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshiradi.
3. Raqamli advokatura modelini rivojlantirish. Advokatlik xizmatlarida raqamli texnologiyalarni (onlayn maslahat, elektron ish yuritish, masofaviy himoya mexanizmlari)

keng joriy etish fuqarolarning yuridik yordamga bo‘lgan kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

4. Advokatura institutining ijtimoiy ishonch indeksini joriy etish

Jamiyatda advokatura institutiga bo‘lgan ishonch darajasini muntazam o‘lchab boruvchi maxsus ijtimoiy-huquqiy indeks ishlab chiqish advokatura faoliyatini takomillashtirish uchun muhim tahliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

5. Advokatlik faoliyatida etik standartlarni ijtimoiy nazorat bilan uyg‘unlashtirish

Advokatlarning kasbiy etikaga rioya etishini faqat ichki intizomiy mexanizmlar bilan cheklab qo‘ymasdan, jamoatchilik fikri va professional ochiqlik orqali ta‘minlash advokaturaning obro‘-e‘tiborini oshiradi.

6. Yosh advokatlarni ijtimoiy ahamiyatga ega ishlar bilan rag‘batlantirish tizimini yaratish

Inson huquqlari, ijtimoiy adolat va zaif qatlamlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ishlarni olib borgan yosh advokatlar uchun alohida rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish advokaturaning ijtimoiy missiyasini kuchaytiradi.

7. Advokatura sohasiga xotin-qizlarni ko‘proq jalb qilish, hamda ular uchun keng imkoniyatlar yaratish

Oilaviy nizolar, bolalar huquqlari, zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha ayol advokatlarning professional ishtirokini rag‘batlantirish ushbu toifadagi ishlar sifatini oshiradi. Kasbiy kamsitish va yashirin to‘siqlarning oldini olish mexanizmlarini joriy etish. Ayol advokatlarning kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan bilvosita kamsitish holatlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha Advokatlar palatasi huzurida maxsus ichki monitoring mexanizmini joriy etish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumajidov G. O‘zbekistonda advokatlik kasbining rivojlanishi // O‘zbekiston hududida huquqning rivojlanish tarixi: ilmiy seminar materiallari. –T.: Adolat, 2007. 204-205 b.
2. O‘zbekiston Respublikasida advokatura: darslik, bakalavriat talabalari uchun: 2 jildda; 1-nashr; M.X.Rustambayev, L.B.Xvang. –T.: 2007. 50-59 b.
3. Zotov V.A, Sarkisyants G.P.. Qonuniylik va fuqarolar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. –1972. №5 24b
4. “Advokatura to‘g‘risida”gi 27.12.1996-yildagi 349-I-son Qonun.
5. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi 25.12.1998-yildagi Qonun.

6. “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlar mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 12.05.2018-y
7. “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 30.05.2022.
8. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi 16.06.2023 -yil 848-son qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2023.